

TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARDA IJTIMOIIY QADRIYATLAR TIZIMINI SHAKLLANTIRISH*M.T.Axmedova**Toshkent tibbiyot akademiyasi dotsenti, p.f.n.**M.X.Umarova,**Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, p.f.n.**Nurmatova Iroda Toxtasinovna**Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim fakulteti Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola mualliflar tomonidan tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirishning samaradorligini oshirish uchun yosh avlodning zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularning istiqbolli tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, madaniy saviyasini zamon talabi darajasiga ko'tarish, yoshlar iste'dodini yuzaga chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish lozimligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, texnologiya, ijtimoiy qadriyat, tizim, shakllantirish, samaradorlik, yosh avlod, zamonaviy bilim, istiqbolli tashabbus, qo'llab-quvvatlash, madaniy saviya, zamon, yoshlar iste'dodi, fan-texnika, foydalanish.

Аннотация. В целях повышения эффективности формирования системы социальных ценностей у обучающихся на основе образовательных технологий в данной статье ставится задача вооружит молодое поколение современными знаниями, поддержат их перспективные инициативы, поднят их культурный уровень до уровня современного. требованиям, исползоват научно-технические достижения в раскрытии талантов молодежи, необходимост их исползования разъясняется.

Ключевые слова: образование, технология, социальная ценность, система, формирование, эффективность, молодое поколение, современные знания, перспективная инициатива, поддержка, культурный уровень, время, талант молодежи, наука и техника, использование.

Abstract. In order to increase the effectiveness of the formation of the system of social values in students based on educational technologies, this article aims to arm the young generation with modern knowledge, support their promising initiatives, raise their cultural level to the level of modern requirements, and use scientific and technical achievements in bringing out the talents of young people. the need to use it is explained.

Key words: education, technology, social value, system, formation, effectiveness, young generation, modern knowledge, perspective initiative, support, cultural level, time, talent youth, science and technology, use.

Farovon hayot – mukammal tarbiyadan boshlanadi. Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan.

Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot – mamot masalasiga aylanib bormoqda. “Tarbiya qancha mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi” deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Hozirgi qaltis davrda tarbiya mukammal bo‘lishi uchun bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi - deydi muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev.

Shunday ekan, mamlakatimizda olib borilayotgan izchil islohotlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalarga oid yoshlarni tarbiyalashdagi 5 ta muhim tashabbusi, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi, xorijiy davlatlar oliy ta’lim muassasalarining filiallari va fakultetlarining ochilishi, me’yoriy-huquqiy ta’minotni takomillashtirish hamda moddiy-texnik sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan yurt istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda pedagogika oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarining tashabbuslarini to‘g‘ri yo‘naltirgan holda, tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirish bo‘yicha yangi adabiyotlarni joriy etish, rivojlantirish borasida ta’lim mazmuniga ham izchil ravishda o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi har qanday pedagogik tizimda — ilmiy muammolar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan tushunchadir. Biroq, agar ilmiy muammo tarbiyalanuvchiga bilim berish, ilmiy tafakkurini oshirish hamda ko‘nikma va malakalarini shakllantirish kabi maqsadlarni ifodalaydigan bo‘lsa, u holda tarbiya texnologiyasi o‘qituvchiga o‘quvchilarni tarbiyalash yo‘l-yo‘riqlari va ularga erishish vositalarini to‘g‘ri yo‘naltirishga yordam beradi.

Tarbiyaning texnologiyaviyligi tarbiyalashga yo‘naltirilgan ilmiy muammo sifatida tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirish uchun lozim bo‘lgan va komil insonga xos barcha insoniy fazilatlarni muayyan shart-sharoitlarda uzluksiz tarbiyalash asosida takomillashtirishni nazarda tutadi, bu esa ta’lim mazmunining o‘ziga xos xususiyatlari bilan dolzarbdir.

Tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirish nuqtai nazaridan yondoshuv masalasida butun dunyo olim va mutaxassisleri o‘rtasida ilmiy munozara va bahslar davom etmoqda.

Qadimgi G‘arb faylasuflari ham qadriyatni turlicha talqin etganlar. Qadriyatga tegishli go‘zal va xunuk, yaxshi va yomon, baxt va baxtsizlik tushunchalarini turli davrlarda turlicha va turli odamlar tasavvurida tushunganlar. Ular asosiy aksiologik masalalarni shakllantirishga harakat qilganlar: oliy baxt mavjudmi? Inson hayoti mazmuni nimada? Haqiqat nima? Sevgi nima va ayriliq nima? Go‘zallik nima? Qadriyatlar tabiatidagi qarama-qarshiliklarni aniqlashgan: go‘zal narsalar insonni jinoyatga boshlashi mumkin; go‘zal so‘z salbiy ko‘rinishdagi mazmuni ifoda etishi mumkin; tashqi go‘zallik – ma’naviy qashshoqlik.

Qadimgi Yunon faylasufi Geraklitning fikricha, bilish asosida idrok turadi, biroq donolikka faqat fikrlash orqali erishiladi.

Demokrit barcha narsalarning o'ldirovi, oliy qadriyat sifatida har qanday insonni emas, faqat dono kishini tushunadi. U Geraklitning fikrini inkor etmagan holda, bilishning asosiy manbasi sifatida hissiy idrok aks etishini ta'kidlaydi. Biroq uning fikricha, hissiy idrok narsa-hodisalar haqida «qorong'u» bilimlar beradi. Dunyoning mohiyatini tushunish tafakkur yordamida haqqoniy bilimlarni egallashga imkon beradi. Bu esa, hissiy idrokning rolini pasaytirmaydi. Aksincha, Demokrit tarbiyada bola tabiatiga uyg'unlik, uning qiziqishlarini hisobga olish zarurligi, jazolashning befoydaligini asoslab beradi.

Demokritning atom to'g'risidagi nazariyasi ham o'zida qator tarbiyaviy qadriyatlarni jamlaydi. Masalan, mehnatga doimiy odatlanishni shakllantirish, ishtirok asosida o'qishga ijobiy motivatsiyani shakllantirish, haqiqatni izlab topish, qalbni qo'rqo'vdan xalos etish, ishtiyoqini shakllantirish haqidagi fikrlari shular jumlasidandir.

Haqiqatga erishishga yo'naltirilgan inson harakatiga Suqrot ham qadriyat sifatida qaraydi.

Aflotun birinchilardan bo'lib, ta'lim tizimini falsafiy nuqtai nazardan asoslaydi, buning uchun davlat ta'limining zarurligini ta'kidlaydi. U o'zining davlat shu jumladan, ta'lim haqidagi ta'limotida g'oyalarning aqlga asoslangan dunyosi; davlat (jamiyat, polis); individ, fikrlovchi, davlat qonunlariga rioya qiluvchi kabilarni ajratib ko'rsatadi.

Aflotun yuksak ezgulikning mohiyatini aks ettiruvchi birinchi qadriyatli tasnifni ishlab chiqdi. Ezgulik o'zida o'ldirov, mo'tadillik, vaqt bilan bog'liqlikni aks ettiradi. Bu qadriyatlar taraqqiyot zinapoyasining eng yuqori qismida joylashadi. Ikkinchi o'ringa Aflotun go'zallik va komillikni; ulardan so'ng aql va tafakkurni; so'ngra – idrok etish va bilimlarni chaqiruvchi qalbning lazzatlanishini qo'yadi. Oxirgi bo'g'inga «yuksak go'zallik» joylashadi.

Bugungi kunda Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasi rivojiga juda katta e'tibor berilmoqda. Bu sohani isloh qilish bo'yicha Davlat dasturlari qabul qilinib, muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda Respublikamizda o'quv muassasalari fan va texnikaning so'ngi yutuqlari asosida ishlab chiqarilgan jihozlar bilan to'ldirilishi, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining joriy etilishi, mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashni talab etadi¹.

Bizning oldimizga qo'yilgan vazifa, tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirish ekan, buni pedagogik faoliyat yoki ma'rifat deyiladi. «Ma'rifat, bu tarbiyalanuvchining xohish-irodasini kerakli yo'nalishda boshqarish san'atidir» degan ekan Abu Nasr Farobiy¹. Pedagogik amaliyotimizni mahorat bilan amalga oshirishimiz uchun pedagogika fanining mazmun-mohiyatini va mehnat faoliyatimizning ob'ekti hisoblangan inson o'zi qanday mavjudot ekanini yaxshi bilib olishimiz lozim.

Pedagogika insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida falsafa tarkibida shakllanib, rivojlanib kelgan. XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asr boshlarida Yan Amos Kamenskiy hamda boshqalarning mehnati bilan pedagogika mustaqil fan sifatida falsafadan ajralib chiqq boshladi. Bu jarayon shu kungacha davom etib

kelmoqda. Ko'p xorijiy mamlakatlarda hozir ham u falsafaning tarkibida. Buning sababi, falsafa bilan pedagogikaning umumiy tomonlari va uni bog'lab turgan rishtalar juda ko'pligidadir. Chunonchi, falsafa dunyoqarashni o'rganuvchi ilm-fan bo'lsa (ontologiya bo'limi), pedagogika bu dunyoqarashni shakllantiruvchi inson faoliyati sohasidir. Shu bilan bir qatorda falsafa inson va jamiyatni o'rgansa (aksiologiya bo'limi), pedagogika har bir insonga ta'lim berib, jamiyat taraqqiyotining ijobiy bo'lishiga sharoit yaratib beradi.

Avvalom bor, shuni aytish joizki, ta'lim-tarbiya faoliyatini qo'l uchida, shoshma-shosharlik bilan bajarishlik man qilinadi. Uni faqat butun vujudi bilan, bor aql-zakovat va bilimini ishga solib, mahorat bilan bajarish lozim bo'ladi. Bu faoliyatning boshqa turdagi faoliyatlardan farqi ham shunda. Chunki boshqa turdagi mehnat faoliyatlarida yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolar yo kishining o'ziga, yo boshqa birovga, yoki mehnat jamoasiga moddiy yoki ma'naviy zarar etkazsa, ta'lim-tarbiyada yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar odamlarning ayniqsa, yosh avlodning rivojiga salbiy ta'sir etib, butun jamiyatning bir necha o'n yillik taraqqiyotiga aks ta'sir ko'rsatadi.

Bir qator ulug' mutafakkir olimlarimiz pedagogika faniga munosib hissa qo'shib, ta'lim-tarbiya faoliyatini samarali tashkil etishda o'z qimmatbaho fikrlarini qoldirganlar va hozirgi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

Imom al-Buxoriyning tarbiya haqidagi qarashlarida jaholat kishiga o'lim keltiruvchi fojia sifatida qoralanadi. U odamlarni to'g'ri so'zli bo'lishga, va'daga vafo qilishga da'vat etib, munofiq kishining uchta belgisi borligini ko'rsatadi, ular: yolg'on gapirish, va'daga vafo qilmaslik va omonatga hiyonat qilishdan iboratligini aytadi. U insonning kuch-qudrati jismonan pahlavonlikda emas, balki jahol chiqqanda o'zini tiya olishida, deb hisoblaydi. Imom al-Buxoriyning ta'lim-tarbiya xususidagi ta'limotida axloqiy qarashlar muhim o'rinda turadi. Uning uqtirishicha, baland tovush bilan o'rinsiz ko'p kulish boshqalar diliga ozor beruvchi xislatdir. Xalqqa yoqimli va ehtiromli bo'lib, uning muhabbatiga sazovar bo'lishni go'zal axloqlik, deb biladi alloma. Mutafakkir asarlarida kichiklarga shafqatli, kattalarga hurmatda bo'lish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Abu Iso at-Termiziy "Sog'lom tanda sog' fikr bo'ladi" degan xalq maqolidan kelib chiqib, yoshlikdanoq sog'liqni saqlashga, vaqtni bekor o'tkazmaslikka da'vat etadi: "ikki narsa borkim, ko'pchilik ularning qadriga etmaydi: biri sog'liq, ikkinchisi bo'sh vaqt". Abu Iso at-Termiziy to'plagan hadislar orasida bolalarni axloq-odob, marhumlarga hurmat ruhida tarbiyalash targ'ib etiladi.

O'tgan asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyoti mutafakkir Abu Nasr Farobiy nomi bilan bog'liq bo'lib, uning inson kamolati haqidagi ta'limoti ta'lim-tarbiya sohasida katta ahamiyatga ega. Farobiy ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi jamiyat talablariga javob bera oladigan va shu jamiyat uchun xizmat qiladigan yetuk insonni tarbiyalashdan iborat deb bilgan va tarbiyalanganlikning o'ziga xos mezonini ishlab chiqqan.

Farobiydan keyin Ibn Sino, Beruniy, Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Umar Xayyom va boshqalar tarbiya yakunida erishiladigan ijtimoiy sifatlar to'g'risida fikr yuritganlar.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ma'rifiy asarlarida har bir inson aqlli, axloqli, bilimdon, oqil, dono, sofdil, sahovatli, sabr-qanoatli, adolatli, muruvvatli, kamtar, mard va jasur bo'lmog'i lozim, - deb ta'kidlagan.

Yuqoridagi fikrlar bilan bir qatorda, Respublikamiz miqyosida hozirgi kunda tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirish bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashda xizmat qilmoqda. Tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etish bo'yicha R.X.Jo'raev, J.G'.Yo'ldoshev, M.X.Toxtaxodjaeva, A.Q.Munavvarov, K.Xoshimov, F.R.Yuzlikaev, O.Musurmonova, M.Quronov, S.Nishonova, J.Xasanboev, N.M.Egamberdieva, N.X.Rahmonqulova, R.Mavlonova, B.X.Xodjaev kabi pedagog-olimlar bir qator ilmiy ishlarni olib borganlar.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki jamiyatimiz takomillashuvi va rivojlanishi natijasida kirib kelayotgan yangi qonun va qoidalar, talablar evaziga yuzaga kelayotgan ma'lum muammolar ushbu maqolaning mazmun-mohiyatini ochib berish va tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirish lozimligini tasdiqlaydi.

Shunday ekan, buning uchun esa ta'lim muassasalarining barcha bo'g'inlarida ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun yosh avlodning zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, ularning istiqbolli tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, madaniy saviyasini zamon talabi darajasiga ko'tarish, yoshlar iste'dodini yuzaga chiqarishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Ayniqsa, har bir o'qituvchining o'z faniga va yoshlarni ta'lim-tarbiyasiga doir axborotlarni chuqur o'rganib, ularni o'z pedagogik faoliyatida qo'llay olishiga erishish zarur. Buning uchun fan asoslarini yoshlarga etkazishda nazariya bilan amaliyotni uyg'unlashtirgan holda yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasini shakllantirib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimida joriy etilishi tarbiya texnologiyalari asosida talabalarda ijtimoiy qadriyatlar tizimini shakllantirish, o'rganilayotgan fanni chuqur o'zlashtirish, ularning mustaqil faoliyatining kengayishi, interfaol metodlarning joriy etilishi asosida ta'lim jarayonini individuallashtirish, gumanitarlashtirish, differensiallashtirishga erishish, o'rganilayotgan fan asoslarini kompyuter texnologiyalarini qo'llash asosida talabalarda bilim olishga bo'lgan qiziqish uyg'otish va ularning faolligini oshirishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ахмедова, М. Т. (2016). Педагогик компетентлик. Т.: ТДПУ.

2. Ахмедова, М., & Нарметова, Ю. (2022). Neypedagogika va neypsixologiya rivojlanib kelayotgan yangi fan sohasi sifatida. *Общество и инновации*, 3(2), 103-109.
3. Ахмедова, М. Т. (2022). ЁШЛАРДА ИЛМИЙ ДУНЁҚАРАШНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ВА УЛАРНИ АҚЛИЙ ТАРБИЯЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(2), 29-41.
4. Ахмедова, М., Аскарлова, Н., & Анварова, Д. (2022). Замонавий таълим тизимида касбий коммуникатив компетентлиликнинг моҳияти ва тузилмаси. *Общество и инновации*, 3(2), 47-51.
5. Tursunaliyevna, A. M., & Karimovna, N. Y. (2022). МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ МУАССАСАЛАРИДА МАДАНИЙ-ГИГИЕНИК МАЛАКАЛАРНИ ТАРБИЯЛАШ–БОЛАЛАР ОРГАНИЗМИНИНГ ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНИШИДА МУҲИМ ВОСИТА. *INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL*, 3(1), 98-103.
6. Umarova, S. (2021). Yoshlarda hadislar yordamida sabr toqatlilik hususiyatini shakillantirish.
7. Akhmedova, M. T., Narmetova, Y. K., Nurmatova, I. T., & Malikova, D. U. K. (2022). Communicative Competence Formation in Future Teachers Based on an Integrated Approach. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(4), 54-60.
8. Akhmedova, M., Narmetova, Y., & Alisherov, B. (2021). Categories of person in conflict and methods of conflict resolution in the occurrence of conflicts between medical personnel.
9. Akhmedova, M. T. (2022). In the Event of Disputes between Medical Personnel Conflict Typology and its Specific Aspects. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 211-216.
10. Akmedova, M. T., & Ugli, J. D. E. (2022). Representations are Emotional-Psychological Visual Images of Reality. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 188-192.
11. Goldstein, B. (2017). A history of video in ELT. *The image in English language teaching*, 23-31.
12. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. *Международные научные исследования*, (1), 161-163.
13. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педтехнологии изучения латинского языка в медицинских вузах. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (53), 66-71.
14. Исраилова, М. Н. К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In Конференция состоялась 5 марта 2022 года на базе Ташкентского государственного стоматологического института по адресу: Республика Узбекистан, 100047, г. Ташкент, ул. Махтумкули,

103. Цель конференции–знакомство и обмен опытом в обучении и в работе с цифровыми данными, технологиями их применения в гуманитарных (р. 414).
15. Балашов, С. В., Вернер, И. В., & Бышевский, В. И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДИК ИНТЕРАКТИВНОГО ОБУЧЕНИЯ.
16. Minakov, O. E. E., Andreev, A. A., & Ostroushko, A. P. (2017). The diabetic foot syndrome. *Journal of Experimental and Clinical Surgery*, 10(2), 165-172.
17. Bosiers, M., & Schneider, P. A. (Eds.). (2009). *Critical limb ischemia*. Informa Healthcare.
18. Svetukhin, A. M., Karlov, V. A., IuA, A., Matasov, V. M., & Blatun, L. A. (1990). General principles of the treatment of suppurative wounds and suppurative surgical diseases. *Khirurgiia*, (12), 79-84.
19. Лысова, Д. П., & Лысова, М. П. (2015). Малые ампутации нижних конечностей при синдроме диабетической стопы. In *Бюллетень медицинских интернет-конференций* (Vol. 5, No. 5, p. 853). Общество с ограниченной ответственностью «Наука и инновации».
20. Остроушко, А. П., Глухов, А. А., Андреев, А. А., Маркин, Д. А., & Лаптиёва, А. Ю. Физико-химические основы инновационных методов и технологий в лечении ран мягких тканей. *ДАГЕСТАНСКОЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ*, № 4 (41), 2021, 64.
21. Maxsudovich, K. O. CLINICAL COURSE OF PURULENT SOFT TISSUE DISEASES ON THE BACKGROUND OF DIABETES MELLITUS AND DIFFUSIVE TOXIC GOITER.
22. Рахимов, А. Я., Сагдуллаева, Г. У., & Вахидов, У. Г. (2019). МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ВАРИАЦИИ КУЛЬТИ ГОЛЕНИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ПРИ КРИТИЧЕСКОЙ ИШЕМИИ НИЖНЕЙ КОНЕЧНОСТИ. *Новый день в медицине*, (2), 41-46.
23. Rakhimov, A. Y., Mhsudovich, Q. O., Ulyanovna, S. G., Safoev, B. B., Zarirovich, L. O., & Rakhimov, A. Y. (2019). Transcutaneous oximetry as the choice of the research for determination of level of amputation of the crus at critical ishemiya of the lower extremities at patients with the diabetes mellitus. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(12), 120-125.
24. Mitish, V. A., Safoev, B. B., & Rakhimov, A. Y. (2019). REAMPUTATION THE CULT OF THE CRUS IN PATIENTS WITH DIABETES MELLITUS IN CRITICAL ISCHEMIA OF THE LOWER EXTREMITIES. *Central Asian Journal of Pediatrics*, 2(1), 230-234.
25. Митиш, В. А., Сафоев, Б. Б., & Рахимов, А. Я. РЕАМПУТАЦИЯ КУЛЬТИ ГОЛЕНИ У БОЛЬНЫХ САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ ПРИ КРИТИЧЕСКОЙ ИШЕМИИ НИЖНИХ КОНЕЧНОСТЕЙ.